


ISSN 3030-3370

№ 2 (5) 2024



AYNY VORISLARI

XALQARO ELEKTRON JURNAL
INTERNATIONAL ELECTRONIC JOURNAL



ISSN 3030-3370

“AYNIY VORISLARI”
xalqaro elektron jurnal

«НАСЛЕДНИКИ АЙНИ»
международный электронный
журнал

“AYNIY’S SUCCESSORS”
international electronic journal

№ 2 (5) 2024

Jurnal 2024-yildan boshlab filologiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining №072250 raqamli guvohnomasi asosida dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruviy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

TAHRIR HAY'ATI:

BOSH MUHARRIR

OBIDJON XAMIDOV,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

DILRABO QUVVATOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

MAS'UL KOTIB

NAFOSAT O'ROQOVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'zbekiston)

DARMONOY O'RAYERVA,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

NURBOY JABBOROV,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

NURALI NUROV,
filologiya fanlari doktori, professor (Tojikiston)

SALIMA MIRZAYEVA,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

SHAVKAT HASANOV,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

NURETTIN DEMIR,
Pr. Dok. (Turkiya)

ALFIYA YUSUPOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (Rossiya)

FUNDA TOPRAK,
Pr. Dok. (Turkiya)

G'AYRAT MURODOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

SHOIRA AXMEDOVA,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

MEHRINISO ABUZALOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

GULCHEHRA IMOMOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc) (O'zbekiston)

DILSHOD RAJABOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

HUSNIDDIN ESHONQULOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

MA'RIFAT RAJABOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

QAHRAMON TO'XSANOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

ZUBAYDULLO RASULOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O‘zbekiston)

MAQSUD ASADOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O‘zbekiston)

BAXTIYOR FAYZULLOYEV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

HILOLA SAFAROVA,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

SAIDA NAZAROVA,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

BAYRAMALI QILICHEV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O‘zbekiston)

DILOROM YO‘LDOSHEVA,
filologiya fanlari doktori (DSc)i, professor (O‘zbekiston)

ZILOLA AMONOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘zbekiston)

NAFISA G‘AYBULLAYEVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘zbekiston)

OTABEK NOSIROV,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (O‘zbekiston)

YARASH RO‘ZIYEV,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (O‘zbekiston)

ZARNIGOR SOBIROVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘zbekiston)

SADOQAT MAXMUDOVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘zbekiston)

NODIR RO‘ZIYEV,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (O‘zbekiston)

RO‘ZIGUL QODIROVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (O‘zbekiston)

JAMOATCHILIK KENGASHI

Jamoatchilik kengashi raisi:

TO‘LQIN RASULOV,
fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (O‘zbekiston)

Jamoatchilik kengashi raisi o‘rinbosari:

ERGASH QILICHEV,
filologiya fanlari nomzodi, professor (O‘zbekiston)

Jamoatchilik kengashi:

IBODULLA MIRZAYEV,
filologiya fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

MUSLIHIDDIN MUHIDDINOV,
filologiya fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

JUMAQUL HAMROH,
filologiya fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

*Yuldasheva Dilorom Nigmatovna,
Buxoro davlat universiteti professori, f.f.d. (DSc)
(O'zbekiston)
E-mail: yuldasheva21dilorom@gmail.com*
*Asadova Shahlo Akmal qizi,
Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
(O'zbekiston)
E-mail: asadova90shakhlo@gmail.com*

GRADUONIMIYA HODISASI VA UNING TADQIQI XUSUSIDA

Annotatsiya. O'zbek an'anaviy tilshunosligida ko'p yillar so'zlararo va nutqda ular bilan teng barobarda ishlatalidigan frazemalarda ma'noviy munosabatlar ma'nodoshlik, shakldoshlik va zid ma'nolilikni o'rganish bilan cheklanib qoldi. Substansial tilshunoslik bu xil munosabatlar doirasini giponimik, partonimik, graduonimik munosabatlarni ajratish bilan kengaytirildi va graduonimik kabi ma'no munosabat turlari ham lisoniy-lug'aviy tizimda mavjudligi aniqlandi. Ushbu maqolada graduonimiya hodisasi va uning tadqiqi xususida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: graduonimiya, frazemalarda ma'noviy munosabatlar, frazeologik graduonimiya

Аннотация. На протяжении многих лет в традиционном узбекском языкоznании изучение семантических отношений между словами и словосочетаниями, употребляемыми наравне с ними в речи, ограничивалось изучением значения, формы и противоположного значения. Субстанциальная лингвистика расширила сферу таких отношений, выделив гипонимические, партонимические, градуонимические отношения, и было установлено, что в лингвоклассической системе существуют и такие виды смысловых отношений, как градуонимические. В данной статье ведётся о явлении градуонимии и его исследовании.

Ключевые слова: градуонимия, смысловые отношения во фразеологии, фразеологическая градуонимия

Abstract. For many years, in traditional Uzbek linguistics, the study of semantic relationships between words and phrases used along with them in speech was limited to the study of meaning, form and opposite meaning. Substantial linguistics has expanded the scope of such relations, highlighting hyponymic, partonymic, graduonymic relations, and it has been established that in the linguistic lexical system there are also such types of semantic relations as gradeunymic ones. This article talks about the phenomenon of graduonimia and its research.

Key words: graduonimia, spiritual relations in phraseology, phraseological graduonimia

Kirish. Tilning asosiy birliklaridan biri bo'lmish leksemalar orasida ularning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turli xil munosabatlar amal qiladi. Ba'zi munosabatlar ma'no asosida bo'lsa, boshqalari orasida shakliy munosabatlar mavjud. Shu boisdan mutaxassislar leksemalararo munosabatlarni ikkiga ajratishadi:

1. Leksik-semantik munosabatlar;
2. Leksik-shakliy munosabatlar.

Leksik-semantik munosabat deganda leksemalarlarning o'zaro ma'no asosidagi o'xshashlik va farqlari tushunilsa, leksik-shakliy munosabat sifatida leksemalarning o'zaro shakl asosidagi o'xshashlik va farqlari e'tiborga olinadi.

Asosiy qism. Leksik birliklar lisonda turli semantik munosabat asosida har xil paradigmatis qatorlarga mansub bo'ladi. *Sinonimik, antonimik, graduonimik, partonimik, giponimik, agnonimik* munosabatlar ana shunday lisoniy munosabat turlari hisoblanadi. Substansial tilshunoslik leksik-shakliy munosabatlar sirasiga omonimiya (shakldoshlik) va paronimiya (talaffuzdoshlik) hodisalarini kiritmaydi, sababki, substansialchilar ularni bevosita til strukturasiga daxldor emas, ular faqat nutqiy bosqich hodisalaridir, deb hisoblashadi.

Graduonimiya (gr. *gradatio* – “ko‘tarilish”, “o‘sish”, *onymo* – “nom”). Lug‘aviy birliklar o‘zaro ma’noviy munosabatiga ko‘ra ma’lum bir darajalanish qatorini hosil etishi fanga qadimdan ma’lum va uning eng yorqin namunasi – *o‘rta so‘zini o‘z ichiga olgan so‘zlar qatori hisoblanadi*. Masalan,

katta – o‘rta – kichik
yosh – o‘rta – qari
uzoq – o‘rta – yaqin
baland – o‘rta – past
uzun – o‘rta – qisqa.

Ma’lumki, *o‘rta so‘zi* bilan ifodalangan belgi-xususiyat tom ma’noda o‘italik, oraliq, ya’ni ikki bir-biriga zid belgi oralig‘idagi holatni ko‘rsatadi. *O‘rta* leksemasi antonimlar oralig‘idan o‘rin olsa, *katta – o‘rta – kichik* darajalanishi kam seziladi. Lekin *o‘rta* leksemali birliklarni zid belgi asosida emas, ma’lum bir belgining kamayishi yoki o‘sishi asosida idrok etilsa, ma’noviy darajalanish yaqqol angashiladi.

Darajalanish qatori a’zolari kamida uchta bo‘ladi. Darajalanish munosabatlari bilan bog‘langan so‘zlar qatorini:

- a) nolisoniy asos;
- b) sof lisoniy asosga tayanib ajratish mumkin.

Nolisoniy omilning mohiyati shundaki, borliqdagi narsa, belgi-xususiyatda sifat farqi bilan birga miqdor farqi ham mavjud. Masalan, inson *go‘daklik, yoshlik, navqironlik, yetuklik, qarilik* holatini, o‘simplik *navnihollik, ko‘chatlik, yetilganlik, so‘iganlik, quriganlik* davrini boshidan kechiradi – o‘sadi. Tabiatdagi rang va boshqa belgilar shunchalik xilma-xilki, bo‘yoqchilar birgina qora rangning hatto o‘ndan ortiq turini ajratadilar. Insonning faol ongi ana shu miqdoriy va sifatiy farqni aks ettiradi. Til ongning ifodasi bo‘lganligi bois u ongdagi aks ettirilgan mana shunday miqdoriy farqlarni ham ifodalashi lozim. Bunday miqdoriy farq turli usul bilan, jumladan, alohida-alohida leksema bilan ham ifodalaniadi. Chunonchi, *ayyor – mug ‘ombir – hiylagar – quv – ustamon – makkor – dog ‘ush – mo ‘toni – hilviri; jo ‘yak – ariq – kanal – soy – daryo – dengiz – ummon; jilmaymoq – kulimsiramoq – iljaymoq – irjaymoq – tirjaymoq – ishshaymoq – irshaymoq – kulmoq – xoxolamoq – qah-qah urmoq; zarar – ziyon – talofat* kabi.

Graduonimik lug‘aviy qatorni ajratishning lisoniy omili quyidagilar:

ma’noviy omil;
so‘zlararo paradigmatic munosabat.

Natijalar va muhokama. Graduonimik qatomi ajratishdagi ma’noviy omilning mohiyati shundaki, bir qator leksemalar sememasida ma’lum bir belgining oz-ko‘pligiga, turli xil darajalariga ishora mavjud. Masalan, *darcha – eshik – darvoza* leksemasing “O‘zbek tili izohli lug‘ati”dagi izohini kuzataylik:

1. Darcha – ilgari vaqtarda deraza vazifasini o‘tagan bir yoki qo‘sh tavaqali, eshik yoki devorga o‘rnatilgan kichkina eshikcha [4].

2. Eshik – uy, xona, bino yoki hovlining kiraverishida o‘rnatilgan ochib-yopib turiladigan moslama [5].

3. Darvoza – hovli, qo‘rg‘on, qal’a, zavod va shu kabilarga kiriladigan, ochib-yopiladigan katta eshik, qopqa.

Ajratilgan so‘zlar miqdoriy ko‘rsatkichlarni ifodalovchi leksemalardir. Bu *darcha* leksemasi izohidagi *kichkina* va *eshikcha* so‘zleri, *darvoza* leksemasi izohidagi *katta* so‘zi.

Boshqa bir leksema qatorini olamiz: *gulobi – pushti – qizg‘ish – qizil – ol – qirmizi*.

Bu leksemalar qayd etilgan lug‘atda quyidagicha izohlangan:

1. **Gulobi** – gulob rangli, gulobi.
2. **Pushti** – shaftoli guli rangidagi, och qizil.
3. **Qizg‘ish** – qizilga moyil, qizilga yaqin rangdagi, qizg‘imtir.
4. **Qizil** – qon rangidagi, qirmizi, olvali.
5. **Ol** – qizil, qirmizi.
6. **Qirmizi** – qizil rangli, qizil, ol.

Bu tavsif, albatta, mukammal emas. Chunki ular o‘zining graduonimik sistemasidan uzib tavsiflangan. Agar ular bir sistema a’zolari sifatida tahlil etilsa, quyidagi tavsiflarga ega bo‘lishar edi:

Gulobi – gulob rangli, oqdan qizillikka, pushtiga moyil bo‘yoqli rang.

Pushti – shaftoli guli rangidagi, och qizil, gulobidan to‘qroq.

Qizg‘ish – pushtidan to‘qroq, qizildan ochroq, qizg‘imtir rang.

Qizil – qon rang.

Ol – qizildan to‘qroq rang.

Qirmizi – to‘q qizil rang.

Bu leksemalar denotativ ma’nolaridagi rangning miqdoriy semasi asosida quyidagicha darajalanadi:

<i>qizillik</i>					
-3	-2	-1	0	1	2
<i>gulobi</i>	<i>pushti</i>	<i>qizg‘ish</i>	<i>qiril</i>	<i>ol</i>	<i>qirmizi</i>

Demak, lug‘aviy graduonimik qatorni ajratish uchun ma’noviy omil o‘zaro yaqin tushunchani ifodalovchilar sirasidagi har bir leksemada ma’lum bir belgining turlicha darajalanishiga ishora mavjudligida namoyon bo‘ladi. Shu asosda ma’noviy omilning o‘zi ikki turga bo‘linadi:

bir-biriga yaqin va o‘xshash tushunchani ifodalashi;

ayni bir belgining turli xil miqdoriga ishora qilishi.

Graduonimik qator lug‘aviy paradigmaga qo‘yiladigan quyidagi talabning barchasiga javob berdi:

lug‘aviy paradigmanning bitta yetakchi leksema (dominanta) atrofida birlashishi;

lug‘aviy paradigmanning ochiqligi;

lug‘aviy paradigmanning boshqa kattaroq paradigma tarkibiga yetakchi leksema bilangina kirishi;

lug‘aviy paradigmadagi qurshov leksemaning dominant leksema bilan osonlikcha almashtirila olishi.

Demak, leksemalararo lisoniy munosabat sanaluvchi graduonimiya hodisasi bir necha leksemaning ma’lum bir belgining oz-ko‘pligiga qarab, lug‘aviy ma’noviy qatorda, sistemada namoyon bo‘lishi bo‘lib, bunda dominant va qurshov leksema farqlanadi [1].

Lug‘aviy graduonimik qatorda dialektikaning eng umumiylar qonunlari mavjud:

1) graduonimik qatorda belgining darajalanib, oshib yoki kengayib borishida miqdor o‘zgarishining sifat o‘zgarishiga o‘tishi qonuni tajallilanadi;

2) graduonimik zanjirning ikki chekka uchi ma’lum bir belgining tasdig‘i bilan birga, bir-birini inkor etishida inkor qonuni namoyon bo‘ladi;

3) bir-birini inkor etuvchi (antonimik munosabatda turgan) leksemalarning bir yetakchi leksema (dominanta) atrofida birlashib, bir lug‘aviy ma’noviy qatorni – paradigmani, butunlikni tashkil etishda qarama-qarshilik birligi va kurashi qonuni voqelanadi.

Borliqdagi barcha voqeliklar bir-biri bilan uzviy bog‘liqligi bizga fizikaning “Butun olam tortishish qonuniyati” dan ham ayon. Xususan, til fani birliklari ham o‘zaro chambarchas bog‘liq, ularning o‘xshash va farqli tomonlari mavjud. Ularning ayrim xususiyatlari o‘rganilgan bo‘lsa, ba’zilari hamon o‘z tadqiqini kutmoqda. Bu fikri graduonimiya va sinonomiya hodisalari haqida ham qo‘rqmasdan aytishimiz mumkin. Agar sinonim va uning xususiy tomonlari anchagina tadqiq etilgan bo‘lsa, graduonimiya hodisasi talab darajasida tadqiq etilmagan.

Sinonomik munosabatlar tilshunoslik tarixida fanimiz kabi uzoq tarixga ega bo‘lsa ham, lug‘aviy ma’nodoshlik muammolariga ming minglab sahifalar, asarlar bag‘ishlangan bo‘lsa ham hatto, bir emas bir nechta sinonimlar lug‘ati tuzilgan bo‘lishiga qaramay, sinonimlar muammosi hali qilinishi zarur bo‘lgan, yechimini kutayotgan jumboqlar talayginadir. Shunday masalalar qatorida, jumladan, quyidagilarini sanab o‘tish mumkin:

–ma’nodoshlik va variantlilik muammosi (*baodab/baodob/odobli*)

–ma’nodoshlik va lug‘aviy darajalanish (masalan, *so’ramoq –iltimos qilmoq – yalinmoq – yolvormoq – o’tinmoq*) kabi.

Lug‘aviy graduonimiya (ma’noviy darajalanish)ni so‘zlararo ma’noviy munosabatlarning alohida bir turi sifatida o‘rganish o‘zbek tilshunosligida 80-yillarning oxirlaridan boshlandi.

Tilshunoslikda graduonimiya so‘zlararo ma’noviy munosabatlarning alohida bir ko‘rinishi sifatida ajratilguniga qadar, belgini darajalab ifodalovchi so‘zlar sirasi sinonimlar doirasida o‘rganilar edi.

O‘zbek tilining sinonimlar lug‘atida ma’nosi darajalanuvchi so‘zlar ko‘p hollarda sinonimlar sirasida berilar edi. Albatta, graduonimiya hodisasi maxsus ajratilmagach, ma’nosi darajalab ko‘rsatuvchi so‘zlar ko‘p holatda turli sinonimik uyalar ichiga tarqatilib yuborilgan. Buning haqqoniy sabablari ham mavjud edi. Chunki sinonimlar ma’nosi bir-biriga yaqin bo‘lgan so‘zlarni o‘z ichiga oladi.

Takidlash lozimki, til sistema ekan lug‘at tizimi ham sistem tabiatga ega va tilda biror leksema (so‘z) yo‘qki, ma’lum bir lug‘aviy paradigmadan o‘rin olmasa. Ma’noviy darajalanish hodisasi maxsus ajratilmay, ma’noni darajalab beruvchi so‘zlar ko‘p holatlardasinonimlar tarkibiga singdirib yuborilganligi sababli, (*kuchsiz – kamquvvat – zaif – nimjon – ojiz – notavon* kabi) birliklar sinonimlar lug‘atidan o‘rin ololmas edi.

Sinonimlarni ajratishning, so‘zlarni sinonomik paradigmalarga birlashtirishning asosiy omili sinonim so‘zlar anglatgan, ular nomlaydigan, ataydigan narsa, voqeа, hodisa, belgi, xususiyat...ning aynanligidir. Mana shu keskin farq graduonimiyanı sinonomiyadan ajratib turadi. Sinonomik qatorlarni birlashtirishda yetakchi omil sinonomik paragma so‘zlarining bitta umumiyy denotat(atalmish)ga ega bo‘lib, o‘z paradigma ichida asosan uslubiy bo‘yoqlar, qo‘llanilish doirasi bilan farqlansa, graduonimik paradigmadagi so‘zlar turli denotatlarni atab keladi, lekin bu denotatlar orasidagi farq denotatlarning sifatlarida emas, balki miqdoriy ko‘rsatkichlaridadir [2].

Shuning uchun sinonomiya bilan graduonimiya orasidagi asosiy farqni quyidagicha ko‘rsatish mumkin: sinonimik munosabatlар bilan bog‘langan so‘zlar paradigma sineg‘a a’zolari ayni bir denotant ayni bir voelikni turlicha atab, ifodalab, nomlab keladi. Graduonimik munosabatlар bilan bog‘langan so‘zlar paradigma sineg‘a a’zolari turli denotatlarda ayni bir belgining turli miqdorda o‘sib borish yoki kamayish munosabatlari bilan bog‘langan bo‘ladi. Bir qarashda sinonomiya va graduonimiya orasidagi chegara aniqqa o‘xshaydi – denotatlar bir xil bo‘lsa – sinonomiya, denotatlar har xil bo‘lsa-yu, bu denotatlar o‘zaro sifat belgilarining so‘zlarining ma’nosi bilan bir qatorda shu so‘zlarining miqdori har xil bo‘lsa – graduonimiya.

Darajalanish leksemalararo, frazemalararo, va leksema hamda frazemalarning oralig‘ida (bog‘lanishlarida) voqeа bo‘lishi mumkin. Shularga asoslanib, leksik, frazeologik graduonimiyalar haqida gapirish o‘rinlidir. Lug‘aviy darajalanish maxsus *graduonimik qatorlarda* aks etadi. Shuning uchun darajalanish qatori buning birliklari hamda ushbu birliklar orasidagi munosabatlар orasidagi munosabatlар haqida fikr yuritish lozim bo‘ladi. Darajalanish qatorining eng muhim qurilish belgisi unda bir umumiyy belgi miqdorining ortib yo kamayib borishidir. Demak, bu qatordagi leksema va frazemalar bir umumiyy belgining ozlik – ko‘plik darajalanish bo‘yicha o‘zaro semantik bog‘lanishlar(tutashishlar) hosil qiladilar. Bir turdagи sema belgisining oshgan yo kamaygan holda turli leksema va frazemalarning turg‘un tarkibiy qismlariga , komponentlarga aylanib qolgaliklari graduonimik qator tuzilishining bosh omilidir. Lug‘aviy darajalanish qatori ikki va undan ortiq birliklardan iborat bo‘lishi mumkin. Graduonimiya aslida uch a’zoli qatorda yaqqol ko‘rinadi. Shunga qaramay qator (hodisa)ning lisoniy ko‘rinish jihatdan ikki a’zoli ham bo‘la olishini hisobga olishimiz lozim. Misol uchun *qo‘zichoq – qo‘zi – qo‘y* munosabatini olib ko‘raylik. Bu yerdага ontologik darajalanishlarga duch kelamiz.

Demak, graduonimik qatorga nisbatan sinonimiyada voqeа bo‘ladigan dominant a’zo haqida gapirish mumkin emas. Zero sinonomik qator aynanlik graduonimik qator esa farqlilik asosidatashkil topadi. Sinonimik dominantada qo‘shimcha ma’nolarning kamligi (boshqa sinonimlar bilan asosiy ma’noda aynanlikning saqlanganligi) asosiy belgi bo‘lsa, graduonimlarning asosiy ma’no zamirida semantik gradatsiya orqali keskin farqlanib turganing o‘zi ma’lum darajalanish qatoriga xos bo‘lgan turg‘un dominant graduonimlar doirasida uchrovchi ma’nolarning keng- torligi va biri o‘mida ikkinchisinig qo‘llanib qolishi sinonimik dominantalar va ularning qo‘llanish xususiyatlaridan sifat jihatidan farq qiladi [3].

Ko‘p darajalanish qatorlarida belgining me’yordan ozlik yoki ko‘plik darajasi graduonimlarning bevosita munosabatlardan (yondosh bog‘lanishlaridan) yaqqol ko‘rimib turadi. Masalan, *pichirlamoq-shivirlamoq- gapirmoq* kabi. Ayrим hollarda esa belgi darajalaishi graaduonimlarning umumiyy tizimidagi

tartibi zaminida bilvosita anglashiladi: *janub-* *g'arb*, *shimol-* *sharq*, *dushanba-seshanba-* *chorshanba-payshanba-* *juma-* *shanba* kabi. Graduonimik qatorda ko'pincha muayyan bir belgining emas, balki u bilan bog'liq bo'lgan belgilarning ham izchil oshib yoxud kamayib borishi anglashilishi mumkin. Graduonomiya va sinonomiya hodisalari o'zlarining asos belgilariga ko'ra keskin farqlanadilar. Zero, sinonomiya ikki yoki udan ortiq leksema va frazemalarning aynanlashuviga asoslansa, graduonimiya sememalar asosiy semalaridagi gradasiyali farqlanuviga tayanadi. Bundan sinonimlardagi asosiy ma'nolarning tengligi, graduonimiyada esa teng emasligi ma'lum bo'ladi. Shuning uchun ham sinonimlar biri o'mida ikkinchisini qo'llash, umuman, mumkin bo'lsa, asosiy denotativ graduonimik qatorlarda bunday bo'lishi mumkin emas. To'g'ri, ko'p hollarda graduonimlar orasida darajalanuv farqlari kichik yoki kuchsiz bo'lsa, sememalardagi o'xshashlik ortadi va bu holat ulardagi ma'noviy yaqinlikni (omonimlardagi kabi ma'noviy birlikni, aynanlikni emas) keltirib chiqaradiki, natijada ular ayrim kontekstual omillar hisobiga bira o'mida ikkinchisini qo'llash imkoniyatiga ega bo'lib qoladi. Demak, sinonomiya va graduonimiya doiralaridagi o'zaro almashinuvchanlik hodisalarining farqlarini to'g'ri anglash, ikkinchi tomondan, shunday hollarda graduonimva sinonim juftliklar orasida o'xshashlikning kuchayishi hatto bu ikki hodisaning tutashib ketish hodisalarini hisobga olish kerak.

Sinonomiya, asosan, so'zning ma'no tarkibidagi ifoda va vazifa semalari orasidagi farqlarga tayansa, graduonimik lug'aviy paradigmalarni ajratish, so'zlarning atash, nomlash semalari tarkibidagi miqdoriy ko'rsatkichlar bilan aloqador bo'lgan sifat farqlari semalariga tayanib ajratadi. Shuning uchun graduonimik qatordagi yondosh so'zlar sinonimik munosabatlarga kirisha oladi.

Graduonimik qatordagi yondosh so'zlar o'zaro sinonimik munosabatlarda tursa, graduonimiya qatorlarining chekka nuqtalarida turgan so'zlar o'zaro antonomik munosabatlarda turadi. Masalan,

milligramm – gramm – kilogramm – sentner – tonna;

oila – mahalla – ovul – qishloq – shahar – tuman – viloyat – respublika.

Sinonomiya va antonomiya chegarasi graduonimik qatorning yetakchi so'zi bilan belgilanadi; bu chegaraning bir tomonida turgan so'zlar o'zaro uzoq-yaqin sinonimik munosabatlar bilan, chegaraning ikki tomonida turgan so'zlar o'zaro antonomik munosabatlar bilan bog'langan bo'ladi. Yana graduonimiya va antonomiya hodisasi haqida shuni aytish joizki, bular aslida bir asosga tayanuvchi semantik hodisalar bo'lib chiqadi. Ma'lumki graduonimiya va antonomiya tushunchasida farqlarning kuchli yoki yorqin ko'rinishlari bo'lgan ziddiyatlar qarama-qarshiliklar bilan ish ko'rilgan, xolos. Boshqacha qilib aytganda antonomiyaning an'anaviy va hozir keng tarqalgan belgilanishida bir graduonimik qatorning ikki qutbi olinib, ushbu qatorning oraliq yoki yondosh farqlanuv munosabatlari baholashdan chetda qolgan. Aslida graduonimiya semantik darajalanishlarga asoslangan bir umumiyo yo'nalishli qator (zanjur) bo'lsa, antonomiya shu zanjirning (qatorning) turli qismlari (a'zolari) orasidagi semantik farqlanuvchanlik-zidlanuvchanlik munosabatlar hisoblanadi.

Xulosa. O'zbek tilida darajalanish hodisasining tadqiqi graduonimik munosabatlarning so'zlar doirasi bilan cheklanmasligi, balki ular butun lisoniy tizimni, shu jumladan, frazeologizmlarni ham qamrab olishi, bu esa nutqiy ravonlik hamda ta'sirchanlikni ta'minlashga, uning rang-barangligi va jozibadorligini oshirishga xizmat qiluvchi tavsiyalardan amaliy foydalanishda ahamiyatli sanaladi. Demak, graduonimik qatorlarning bir lug'aviy ma'no guruhi ichida frazemalarning bitta yetakchi birlik atrofida birlashishini belgilash; ma'lum bir belgining turli darajalanishi asosida zidlanuvchi so'zlar sirasida ularning mavjudligini ko'rsatish ham tilshunosligimiz uchun muhim.

ADABIYOTLAR:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. – Buxoro: Durdona, 2021. – 555 b.
2. Джумабаева Ж. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик ҳамда стилистик градуонимия: филол. Фанлари д-ри ... дисс. Автореф. – Т., 2016. – 54 б.
3. Orifjonova Sh. O'zbek tilde lug'aviy graduonimiya: f.f.n.diss.avtoreferat. – T., 1997. – 21 b.
4. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 80000 дан ортиқ сўз ва сўз биринчаси. 5 жилдли. А-Д. – Т.: ЎзМЭ, 2006. – 680 б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 80000 дан ортиқ сўз ва сўз биринчаси. 5 жилдли. Щ-Х. – Т.: ЎзМЭ, 2008. – 592 б.
6. Yuldasheva D.N., Asanova Sh.A. O'zbek tilida frazeologik graduonimiya. Monografiya. – Germaniya: Globe Edit international Publishing Group. – 2021. – 85 p.

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
SADRIDDIN AYNIY HAYOTI VA IJODIGA DOIR TADQIQOTLAR			
1. Қосимов Олимчон Ҳабибович	Фарҳанги тафсирии устод Айнӣ ва рушди сарвати забони тоҷикӣ		6
2. Saidova Rayhon Bekmurodovna	Sadriddin Ayniy tuzgan antologiyada Fitrat ijodiga oid mulohazalar		11
3. Narziyeva Dilnoza Inoyatovna	Sadriddin Ayniy asarlarida mehmon obrazi va mehmonnavozlik tasviri		15
FOLKLORSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI			
4. M. Faruk Toprak	Ez-Zemahşeri'nin şiirlerinde Harezm		20
5. Fayzulloyev Otobek Muhamadovich	Ingliz va o'zbek folklorshunosligida bolalar folklorini o'rganish va nashr etish jarayonlari		28
6. Келдиёрова Гулчехра Сайдиевна	Шарқ адабиётида комил инсон муаммоси		32
7. O'roqova Nafosat Yoriyevna	Xalq lirik qo'shiqlarida floristik obrazlarning o'mni		37
8. Chuliyeva Nilufar A'zam qizi	Zamonaviy she'riyatda badiiy zamon va makon poetikasi		42
9. Keldiyorova Naima Nabijonovna	Azim Suyun she'riyatida mavzu va obraz munosabati		48
10. Qodirova Nasima Saidburxonovna	Jahon adabiyotshunosligida munaqqid uslubiga doir nazariy qarashlar		53
11. Axmedova Hafiza Hakimovna	Muhammad Yusufning lirik maktublariga Sergey Yesenin an'analari ta'siri		58
12. Qudratova Muborak Shuhratovna	Hozirgi zamon o'zbek she'riyati taraqqiyotining asosiy tamoyillari		63

13. Berdiyeva Dilnavoz Orif qizi	Zamonaviy o'zbek shoiralari ijodida bag'ishlov va maktub-she'rlar	68
14. Fozilova O'g'iloy Fayoz qizi	Navruz holiday views in Bukhara region	72
15. Norova Mekhri Bakhtiyorovna	Color symbols in modern Uzbek poetry	76
16. Teshayeva Gulnoza Jamshidovna	Adabiy parallel janri metodologiyasi xususida	81
17. Xudoyerova Nafisa Baxtiyor qizi	O'zbek ma'rifatparvarligi adabiyotining shakllanish omillari va o'ziga xos xususiyatlari	86
18. Egamberdiyeva Gulchiroy Esan qizi	An'ana va vorisiylikning Oydin Hojiyeva she'riyatidagi ifodasi	91
19. Mukhtorova Maftuna Ilkhom kizi	Islamic Perspectives on Joseph Conrad's "Heart of darkness" and Rudyard Kipling's "The white man's burden"	96

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MUAMMOLARI

20. Abuzalova Mehriniso Kadirovna, Xalikova Mohigul Xalimjanovna	O'zbek-turk tillari numerologik komponentli birliklarida madaniy kodning voqelanishi	100
21. Yuldasheva Dilorom Nigmatovna, Asadova Shahlo Akmal qizi	Graduonimiya hodisasi va uning tadqiqi xususida	106
22. Hamroyeva Nafisa Nizomiddinovna	Nutqiy etiketning lingvistik tabiatni	111
23. Козиева Икбол Комилжоновна	Роль и место ономастики в ряду других научных дисциплин	116
24. Babayarov Maxmud Xamitovich	O'zbek sport sharhlovchisi Axbor Imomxo'jayev nutqining lingvistik tahlili	122

RETRO

Беназир устозимиздан тухфа 126

QUTLOV

130

FILOLOGIYA ILMIDAGI YANGI QADAMLAR

134